

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 23 838 tani tashkil etadi, shundan 19 775 tasi yoki 83,0 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 0,1 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 0,2 foizni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (birlikda)



Yillar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	23 838	19 894	19 775
2024	23 835	19 828	19 735
2023	25 539	21 526	21 629
2022	29 112	25 280	25 174
2021	26 395	22 670	22 473

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Termiz shahrida – 17,8 foiz, Denov – 11,9 foiz, Jarqo'rg'on – 7,6 foiz, Sherobod – 7,0 foiz va Termiz – 6,9 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Termiz shahrida – 86,6 foiz va 85,9 foiz, Denov – 84,2 foiz va 83,6 foiz, Jarqo'rg'on – 84,5 foiz va 84,0 foiz hamda Sherobod – 85,0 foiz va 84,7 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Shahar va tumanlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Termiz shahri	4 250	3 679	3 649
Denov tumani	2 828	2 380	2 364
Jarqo'rg'on tumani	1 813	1 532	1 523
Sherobod tumani	1 678	1 427	1 421
Termiz tumani	1 640	1 482	1 470
Sho'rchi tumani	1 579	1 317	1 309
Qumqo'rg'on tumani	1 578	1 279	1 276
Sariosiyo tumani	1 352	1 036	1 027
Oltinsoy tumani	1 119	877	873
Angor tumani	1 318	1 131	1 126
Uzun tumani	1 144	904	900
Muzrabot tumani	997	811	806
Qiziriq tumani	978	797	792
Boysun tumani	959	763	761
Bandixon tumani	605	479	478

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025-yil 1-aprel holatiga 33,7 foizni (40,5 foiz va 40,3 foiz) tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 12,5 % (14,9 % va 14,8 %), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 9,1 % (10,8 % va 10,8 %).


Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Korxona va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turi	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 177	2 143	2 132
Sanoat	2 981	2 964	2 933
Qurilish	1 821	1 804	1 791
Savdo	8 024	8 024	8 000
Tashish va saqlash	613	609	604
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 596	1 589	1 588
Axborot va aloqa	351	344	343
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	467	398	395
Boshqa turlar	5 808	2 019	1 989

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 19 894 ta faol tijorat korxonalaridan 11 927 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar viloyatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	11 927	60,0
Xususiy korxonalar	4 382	22,0
Oilaviy korxonalar	3 329	16,7
Aksiyadorlik jamiyati	16	0,1
Boshqalar	240	1,2

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 542 ta korxonalardan 62 tasi qo'shma korxonalar va 480 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 187 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 169 tadan 340 taga, (o'sish 171 taga), axborot va aloqa sohasida 5 tadan 16 taga (o'sish 11 taga) va qurilish sohasida 21 tadan 30 taga (o'sish 9 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turi	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	542	62	480
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	35	10	25
Sanoat	75	27	48
Qurilish	30	5	25
Savdo	340	16	324
Tashish va saqlash	17	1	16
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14	-	14
Axborot va aloqa	16	-	16
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	-	5
Boshqa turlar	10	3	7

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 372 ta korxona bilan Afg'oniston respublikasi egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 68,6 foizini tashkil etdi. Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (7,6 %), Tojikiston (5,7 %), Turkiya (4,4 %), Xitoy (3,5 %) va Qozog'iston (2,0 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	542	62	480
Afg'oniston	372	17	355
Rossiya	41	15	26
Tojikiston	31	4	27
Turkiya	24	4	20
Xitoy	19	4	15
Qozog'iston	11	3	8
Pokiston	8	-	8
Buyuk Britaniya	3	-	3
Hindiston	3	2	1
Armaniston	3	3	-
Belorussiya	3	1	2
Janubiy Koreya	2	1	1
Ukraina	2		2
Turkmaniston	2	1	1
Ozarbayjon	2	-	2
BAA	1	-	1
Qirg'iz Respublikasi	1	-	1
Yaponiya	1	1	-
Boshqa davlatlar	13	6	7

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxona va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot korxona va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
O. Raxmonov
55 451-80-00 (76-50)

Maznil:
190108, Termiz shahar,
at-Termiziy ko'chasi, 7-uy
